

**CHET TILLARINI O'RGATISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL METODLAR**

Po'latova Zubayra Baxodir qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Roman-german filologiyasi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Anorboyeva Soliha Asqarjon qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti o'qituvchisi

***Annotatsiya.** Biror boshqa chet tilini o'rganish anchagina mashaqqatli, ko'p vaqt va harakatni talab qiladigan vazifa hisoblanadi. Lekin bu vazifani yengillashtirishning samarali hamda maroqli yo'llari bor, bu ham bo'lsa shu chet tilini o'rganishda turli xil o'yinlardan foydalanishdir.*

***Kalit so'zlar:** chet tili, o'yin, tajriba, metodika, interaktiv, globallashuv*

Biror boshqa chet tilini o'rganish anchagina mashaqqatli, ko'p vaqt va harakatni talab qiladigan vazifa hisoblanadi. Lekin bu vazifani yengillashtirishning samarali hamda maroqli yo'llari bor, bu ham bo'lsa shu chet tilini o'rganishda turli xil o'yinlardan foydalanishdir.

Ma'lumki, o'yin-o'quvchilarning bilimini mustahkamlashda va ularning so'zlashuv nutqini faollashtirishda yetarli natijani beruvchi vositadir. U shaxsni voqelikni anglashini va o'zlashtirishini, aqliy, emotsional va ma'naviy tomondan rivojlanishini ta'minlaydi.

Bilamizki an'anaviy dars o'tish usullarida, belgilangan dars soati davomida har bir o'quvchi bilan ishlash uchun vaqt kamlik qiladi. Vaqt yetmay qolgan o'quvchida esa o'z-o'zidan bu fandan zerikish, unga qiziqmaslik va uni yaxshi o'zlashtirmaslik uchun yetarli sabablar paydo bo'ladi. Shuning uchun metodika mutaxassislari chet tiliga qiziqishni jalb qiladigan o'quv faoliyatining shakli va usullarini, yo'l-yo'riqlarini qidirmoqdalar. Shunday shakllardan biri bu o'yindir.

O'qituvchi qaysi auditoriya yoki guruhda ishlamasin, o'quvchilar

o'qitishning qaysi etapida bo'lmasin, qiziqarli topshiriqlarsiz va o'yinlarsiz tilni o'rganish darajasi yuqori bo'lmaydi. Avvalo bunday o'quv jarayoniga turli xillikni, rang-baranglikni olib kiradi va o'quvchilarda xohish-istakni yanada jonlashtiradi. Bunday o'yin turlari ko'ngil ochadigan vazifani bajaribgina qolmay, balki ularda amaliy maqsadlar ham qo'llaniladi.

O'yinlarning ijobiy tomoni shundaki, u o'quvchilarda fikrlash doirasini, faolligini jonlashtiradi va o'rganilayotgan tilga ijodiy munosabatni o'stirishga imkon yaratadi, auditoriyada erkin muloqot muhitini yaratadi. O'yinda har bir o'quvchi, hattoki "oqsayotgan" o'quvchi ham dars jarayonidagi o'z o'rnini his qila boshlaydi, va o'yinda yutqazmaslik uchun ham o'qituvchi tomonidan belgilangan vazifalarni bajara boshlaydi. Agarda bu rol o'yinlar bo'ladigan bo'lsa natija ikki baravar yaxshilanadi, chunki rol o'rinlari o'yinlarda shu tili o'rganilayotgan millat xarakteri ham yaqqol ochib beriladi, bu esa o'z navbatida o'quvchidan anchagina puxta tayyorgarlik va mashaqqatli mehnatni talab etadi.

O'yinlarni darsning istagan nuqtasidan boshlash mumkin. Masalan, yangi mavzuni o'tish jarayonida, mavzu o'qituvchi tomonidan tushintirib bo'lingandan keyin shu mavzuni mustahkamlab olish uchun turli hil o'yinlardan: guruhlarga bo'lib qisqa savol-javob, "Fikrlar yomg'iri", "Tushunganingni tushuntir" va shu kabi boshqa o'yinlardan foydalanishlari mumkin. Yoki o'qish darslarida biror bir yangi matnni o'qib bo'lgandan so'ng uni odatiy usulda analiz qilmasdan o'yinlar orqali analiz qilsak, bu ham o'quvchida ziyraklikni oshiradi. Eng samaralisi esa uyga vazifa tarzida topshirilgan vazifani o'yinlar orqali bajarish. Bunda o'quvchi o'zi mustaqil ko'p izlanadi, o'z ustida ko'p ishlaydi, aynan shu narsa chet tilini o'rganishda muhim hisoblanadi. Chunki o'qituvchi grammatik vazifani to'g'ri va to'liq tushintirib berishi mumkin, lekin o'quvchi so'z boyligi, to'g'ri va erkin talaffuz, boshqa chet tilida erkin hamda ravon so'zlashishga faqatgina o'zi mehnat qilgan holda erisha oladi. Masalan, chet tilini o'rganishda grammatika darsini misol tarzida oladigan bo'lsak, aksariyat chet tillarini o'rganishda dastlabki yuzaga keladigan muammolardan biri bu—o'rganilayotgan tildagi to'g'ri va noto'g'ri fe'llar ro'yxatidir. Umuman olganda gapirayotganimizda fikrimizni to'liq bayon etishimiz

uchun har bitta gapimizda fe'l qatnashishi shart. Demak, fe'llar ro'yxatini, ularni to'g'ri tuslashni bilishimiz ham darkor.

Masalan, ispan tilida fe'llarni o'rganishda birinchi bo'lib "Ser" va "Estar" fe'llari bilan tanishishdan boshlanadi. Ispan tilida bu ikki fe'l qolgan fe'llarga nisbatan ancha faol hisoblanadi. Ularni yakka holda, yoki so'z birikmasi holida ham ko'plab misollarda uchratishimiz mumkin. O'yinlar misolida fe'llarni o'rganayotganda "Diskussiya", "Zanjir", yoki "Kim chaqqon" kabi o'yinlardan foydalansak bo'ladi. Misol tariqasida "Kim chaqqon" o'yinini olsak, bunda sinf o'quvchilari ikki guruhga bo'linishadi, birinchi guruh "Ser" fe'lini, ikkinchi guruh esa "Estar" fe'lini to'g'ri va to'liq tushuntirib berishlari kerak bo'ladi. O'qituvchi biron bir zamonni aytadi va har bir guruhdan bittadan vakil chiqib o'sha aytilgan zamonda shu belgilangan fe'lni to'g'ri tuslab berishi lozim bo'ladi. Masalan, "Ser" fe'lini hozirgi oddiy zamonda: *soy, eres, es, somos, sois, son*. "Estar" fe'lini esa tugallanmagan o'tkan zamonda tuslash kerak: *estaba, estabas, estaba, estabamos, estabais, estaban*.

"Zanjir" o'yini orqali o'quvchilarda so'z boyligi qay darajada ekanligini tekshirib o'tsak bo'ladi. "Zanjir" o'yinining turlari ko'p:

- a) bir so'zning oxirgi harfiga to'g'ri keladigan boshqa so'z aytilishi
- b) faqat bir so'z turkumiga kiruvchi so'zlarni qatnashtirib
- c) faqat bitta "Rod" (Род) ga taaluqli bo'lgan so'zlar ishtirokida va h.k

Bu o'yinda asosiy e'tibor so'z boyligiga, lug'at yodlashga qaratilgan bo'lib, o'yinning asosiy sharti zanjir uzoq davom etishi, uzilib qolmasligi darkor. Zanjirning qay darajada uzun bo'lishi esa albatta o'quvchilarning so'z boyligiga va chaqqonligiga bog'liq. bu o'yin orqali o'quvchilarda ko'p uchrab turadigan "Hotiradan ko'tarilib qolish" ga ham barham beriladi, chunki bunday o'yinlar o'quvchi hotirasini yaxshigina chiniqtirishga yordam beradi.

"Tushunganingni tushuntir" o'yini ham anchagina samarali dars o'tish hisoblanadi. Bunda o'quvchilar o'zlarini o'qituvchi o'rnida sinab ko'rishadi. Bu o'yindan foydalanib o'tiladigan darslarda o'qituvchi faqatgina chetdan kuzatuvchi, baholovchi va kerak bo'lgan hollardagina hato va kamchiliklarni to'ldiruvchi shaxs

bo'ladi. Qolgan barcha vazifalarni belgilangan o'quvchining o'zi amalga oshiradi. Ya'ni kelayotgan chet tili grammatikasi darsiga o'quvchining o'zi mustaqil dars o'tishga, yangi mavzuni tushuntirishga tayyorgarlik ko'rib keladi. Bunda darsni bitta yoki bir nechta o'quvchilar olib borishlari mumkin. Lekin bu o'yinni hamma yoshdagi chet tilini o'rganuvchi guruhlariga tadbiq qila olmaymiz, chunki endi boshlovchilar uchun bu o'yin turi to'g'ri kelmaydi. Bu o'yinni biz yuqori sinf va lirsey-kollej o'quvchilari o'rtasida o'tqazsak ancha maqsadga muvofiq bo'ladi.

Darslarni o'yin tarzida o'tishning yana bir afzal tarafi shundaki, u o'quvchilarda yakka va guruh tarkibida qanday muloqotda bo'lish kerakligini o'rgatadi. Auditoriyada o'z fikrini bayon qilishga uyaladigan, ko'pchilikning oldida nutq so'zlay olmaydigan o'quvchilar ham topiladi. Ammo o'yin jarayonida bunday kamchiliklardan halos bo'lish mumkin, chunki psixologik jihatdan har birimizning ongimizda o'sha bolalik xotiralari majassam bo'lib, o'yin orqali biz bu narsani ko'rsatib bera olamiz.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib shunday hulosaga kelish mumkin, demak, ko'p o'yinlar g'olib talab qilmaydi, bunday o'yinlarning maqsadi dars jarayonini bir xillikdan uzoqlashtirishdir. O'quvchiga murakkab bo'lgan mavzuni o'yin qiziqarli va oson shaklda yetkazadi. O'yin o'quv jarayonining boshqa aspektlariga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov A. Frazelogizmlar va ularning tarjima muammolari. – Toshkent, 2019.
2. Mamajonova Z. Til va madaniyat: Frazelogizmlarning madaniy kontekstdagi talqini. -Samarqand, 2020.
3. Centro Virtual Cervantes. Refranero multilingüe — Ispancha maqollar va ularning boshqa tillardagi mos keluvchi variantlari: <https://cvc.cervantes.es/lengua/refranero/>
4. АНОРБОЕВА, С. (2023). ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ ПЕРЕВОДЧИКА (НА ПРИМЕРЕ: БАКАЛАВРИАТ И МАГИСТРАТУРА). Journal of Pedagogical and Psychological Studies, 1(1), 120–127. Retrieved from <https://imfaktor.com/index.php/jopaps/article/view/524>